

QIYOSIY PEDAGOGIKA FANINI O'QITISHDA TA'LIMY METODLARDAN FOYDALANISH

Mirzaxmatov Asadbek Yakubjon o'g'li

Qo'qon DPI magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada qiyosiy pedagogika fanini o'qitishda ta'limiy metodlardan foydalanish masalasi hususida ayrim fikr-mulohazalar bayon etiladi. Shuningdek maqolada, metod haqida tushuncha, metoni qo'llashning avfzalliklari, qiyosiy pedagogika fanini o'qitishda samarali bo'lgan metodlarning tavsifi keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Qiyosiy pedagogika, metod, qo'llanish uslubi, samaradorlik, individual xususiyat, ta'lim jarayoni, o'yin texnologiyalari.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ МЕТОДОВ В ПРЕПОДАВАНИИ СРАВНИТЕЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКИ

Мирзахматов Асадбек Якубджон огли

Магистрант Кокандской ГПИ

Абстрактный. В статье представлены некоторые мысли об использовании образовательных методов в преподавании сравнительной педагогики. В статье также дается понимание метода, преимущества использования метода и описание эффективных методов преподавания сравнительной педагогики.

Ключевые слова. Сравнительная педагогика, метод, стиль применения, эффективность, индивидуальные особенности, образовательный процесс, игровые технологии.

USE OF EDUCATIONAL METHODS IN TEACHING COMPARATIVE PEDAGOGY

Mirzakhmatov Asadbek Yakubjon ogli

Master's student of Kokand SPI

Annotation. *This article presents some thoughts on the issue of using educational methods in teaching comparative pedagogy. The article also provides an understanding of the method, the advantages of using the method, and a description of effective methods in teaching comparative pedagogy.*

Keywords. *Comparative pedagogy, method, method of application, effectiveness, individual characteristics, educational process, game technologies.*

Kirish. Qiyosiy pedagogika yoki komparativistika dastlab falsafa fanlari sohasida shakllangan bo'lib, turli masalalarni, jumladan, o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi muammolarining jahon mamlakatlarda rivojlanish masalalarini ham o'rgangan. Qadim zamonlardayoq, falsafiy ta'limotlar mazmunida turli xalqlar va mamlakatlarda bolalarga qanday ta'lim-tarbiya berganliklari to'g'risida anchagina ma'lumotlar mavjud edi. Ularda ta'lim-tarbiya metodlari va qadriyatlari umumlashtirilgan bo'lib, katta avloddan yosh avlodga hayotiy tajribani qanday yetkazilayotganligining o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan edi. Qiyosiy pedagogikaga yanada aniqroq ta'rif beradigan bo'lsak, u pedagogikaning mustaqil fan sohasi sifatida dunyoning turli davlat va mamlakatlarida pedagogika nazariyasi va amaliyotining rivojlanish tendensiyalari, qonuniyatlari va holatini o'zaro taqqoslab o'rganadigan fandır. Shuningdek, u umumiy tendensiyalarning milliy va regional o'ziga xosligining mos va farqli jihatlari ajratib ko'rsatadi hamda milliy ta'lim tizimini xorij tajribasi orqali o'zaro boyitish shakl va usullarini ishlab chiqadi.

Fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda uni o'qitishda samarali bo'lgan metodlarni aniqlash va dars jarayoniga tadbiq etish masalasi alohida ahamiyat kasb

etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Aytish mumkinki, har bir fan muayyan ilmiy-nazariy xulosalar chiqarishda, ta'limotlar yaratishda bevosita asos bo'lib xizmat qiluvchi qator faktlar, hodisalarga ega bo'lishidan tashqari u ushbu faktlarni tadqiq va tahlil qiluvchi metodlarga ham ega bo'lishi shart. Demak, har bir fanning mavjudligi, xulosalari, faolligi uning tadqiqot ob'ekti (manbai), tadqiqot maqsadi va, ayni vaqtda, tadqiqot metodlari bilan belgilanadi, o'lchanadi. Shunday ekan, fandagi ilmiylik prinsipi uchun xizmat qiladigan metod nima? Metod termini nimani anglatadi? Nimani ifoda etadi? degan savolning tug'ilishi mantiqiydir, tabiiydir. Metod etimologik jihatdan grekcha (methodos) so'zidan olingan bo'lib, "tadqiqot", "o'rganish" degan ma'noni anglatadi. Metod bilish nazariyasiga, bilish nazariyasi tamoyillari (prinsiplari)ga ko'ra voqelikka yondashish – tabiat, jamiyat va fikrlash jarayonini – tafakkurni bilish usulidir. Binobarin, metod ushbu falsafiy ma'noda ob'ektiv voqelikning har qanday hodisa va jarayonlarini bilish, tushuntirish va talqin qilish yo'lidir. Ayni vaqtda metod umumiy – falsafiy ma'noda qo'llanishdan tashqari u tor (xususiy) ma'noda ham qo'llanish imkoniyatiga ega. Bu holda u muayyan fanga oidligi bilan, ayni fanning tadqiqot ob'ektini (manbaini) tahlil qilish bilan muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Demak, metod maxsus, xususiy, sohaviy metod sifatida turlicha fanlarda turlicha bo'lishi bilan ajralib turadi. Boshqacha aytganda, metod umumiy va xususiy, falsafiy va sohaviy ko'rinishlarga egaligi bilan xarakterlanadi.

Muhokama va natijalar. Qiyosiy pedagogikani o'qitishda samarali hisoblangan metodlar hususida to'xtalar ekanmiz, ularni alohida-alohida sharxlab o'tish lozim. Jumladan:

Rekodifikasiya metodi. Uning mohiyati shundaki, hodisalami «ko'chirish» faktlari bilan bog'liq yangi va betakror g'oyalarni ishlab chiqish maqsadida hodisalami boshqacha ifodalashdir. U «kashfiyotlar (maydoni) matrisa» siga asoslanadi. Rekodifikasiyani bir tildan ikkinchi til (fanda ko'pincha matematika tili)ga o'tkazish deb tushunsa ham bo'Madi. Biroq u barcha rekodifikasiya tili bo'Mishi mumkin emas, grafik ifodalar, sxemalar, tablisalar, diagrammalar ham

rekodifikasiya vazifasini bajarishi mumkin.

6-6 metodi: Olti kishidan kam bo'lmagan guruh 6 minut davomida guruh oldida turgan muammoni yechishga yordam beradigan aniq g'oyani shakllantirishga harakat qiladilar. Har bir ishtirokchi alohida sahifalarga o'z fikrlarini yozib boradi. Bujudaixcham tarzda amalga oshiriladi: jipsliklarning buzilishi va materiallarning buzilishi, texnologiyalarning buzilishi tarzida. Shundan so'ng guruhda barcha tayyorlangan ro'yxatlar muhokama qilinadi. Muhokama jarayonida o'ta xato qarashlar chiqarib tashlanadi, munozarali masalalarga aniqlik kiritiladi, boshqa barcha aniqlangan xususiyatlar guruhlashtiriladi. Vazifa — bir necha muhim muqobillarni saralab olish. Binobarin, ularning miqdori ishtirokchilar miqdoriga nisbatan kam bo'lishi lozim.

Yalpi «Fikrlar hujumi». Bu metod J.Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan. U katta guruhlarda (20dan 60tagacha bo'lgan) yangi g'oyalar ishlab chiqish samaradorligini sezilarli darajada oshirishni ta'minlaydi. Barcha ishtirokchilar kichik-kichik 5-6 kishidan iborat guruhlariga bo'linadi va har bir kichik guruh hal qilinadigan ijodiy vazifa va muammo bo'yicha 15minut davomida mustaqil ravishda to'g'ri «Fikrlar hujumi» o'tkazadi. Shundan so'ng har bir kichik guruh vakili o'z guruhlarida ishlab chiqilgan g'oya haqida axborot beradilar va o'qituvchi rahbarligida jamoa bo'lib unga baho beradilar va ulardan eng yaxshilari, betakrorlari tanlab olinadi.

«Fikrlarning shiddatli hujumi» - destruktiv berilgan baho bilan dialog. Bu metod ye.A. Aleksandrov tomonidan taklif qilingan va G.Ya. Bush tomonidan o'zgartirilib yo'lga qo'yilgan. Dialogning mohiyati shundaki, jamoa bo'lib g'oyalar ishlab chiqishda ishtirokchilarning ijodiy imkoniyatlari faollashtiriladi va unga zid g'oyalar qo'yiladi.

Mashg'ulot bosqichma-bosqich quyidagi tarzda o'tkaziladi:

1-bosqich. Miqdor va psixologik muloqoti jihatidan maqbul kichik guruhlarini shakllantirish;

2-bosqich. Vazifa, muammodan kelib chiqadigan maqsadlarni ifodalash;

3-bosqich. To'g'ridan-to'g'ri «Fikrlar hujumi» qoidasiga asosan har bir

guruhda g'oyalar ishlab chiqish;

4-bosqich. G'oyalarni tartibga solish va tasniflash;

5-bosqich. G'oyalarni destruktivlash, ya'ni amalga oshishi imkoniyatiga qarab baholash;

6-bosqich. Avvalgi bosqichlarda bildirilgan tanqidiy mulohazalarga baho berish

Ishtirokchilar: 1) g'oyalar ishlab chiquvchi; 2) muammoli vaziyatni tahlil qilish va g'oyalarni baholovchi; 3) zid (qarshi) g'oyalarni ishlab chiquvchi guruhlariga bo'linadigan bo'lsa, samarali natijaga erishish mumkin.

Sinektika metodi. U 1960-yilda AQShda U.Gordon tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metod talabalarga muammoning unsurlarini ifodalashga, ijodning bosh maqsadini ajratib olishga, turli xil xarakterdagi vazifalarni yechishning har xil nusxalarini izlashga yordam beradi va ular quyidagi shaklga ega bo'ladi: bevosita (ma'lum bir vazifaning yechilishiga o'xshatib yechiladi), shaxsiy (obyektdagi berilgan vazifa obraziga kirishga urinib ko'rish va shu nuqtai nazardan fikrlashga harakat qilib ko'ring), ramziy (ikki jumla bilan vazifaning obrazli mohiyatini aytib bering), xayoliy (go'yoki ertaklardagidek bu vazifani yechadilar). Bu bilan bo'lg'usi mutaxassisda abstraksiyalash malakasi, muhokama predmetidan o'zini fikran olib qochish, aql yuritish moyilligi, xayolot, bahslarga kirishib keta olish, bog'lanib qolish havfi bo'lgan g'oyalardan uzoqlashish, boshqalar fikrini tinglash, safdoshi bildirgan g'oyalarga nisbatan chidamli bo'lish, odatdagilar ichidan g'ayri odatiylarini va g'ayri odatiylar ichidan odatdagilarini topish hamda analoglardan umumli foydalanish kabi sinektik fikrlashga bo'lgan qobiliyat shakllanadi.

«ARIZ - TRIZ» metodi. G.S.Altshuller va uning maktabi tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metodlar sinov va kamchiliklar hamda boshqa ularning modifikasiyalaridan sezilarli farq qiladi. Ularko'r-ko'rona qidirishdan ko'ra texnik tizimlarni rivojlantirish qonuniyatlariga bo'ysungan mantiqiy operatsiyalar tizimi asosiga qurilgan. Nazariyaning asosiy g'oyasi: texnik tizimlar o'z holicha emas, balki yaratuvchilik vazifalarini ongli va maqsadga muvofiq yechishda foydalanish

mumkin bo'lgan muayyan qonunlar asosida yuzaga keladi va rivojlanadi. Bu vazifalarni yechish jarayonini texnik ziddiyatlarni aniqlash, tahlil etish va yechish deb qarash lozim bo'ladi. Belgilangan vazifalarni qo'llash metodikasi esa texnika va texnologiyani yaratishdagi ilmiy-texnik ziddiyatlarni ajratib olish, aniqlash va hal qilish bo'yicha muntazam ravishda muayyan harakatlarni bajarishdir. Tizim o'z ichiga bunday ziddiyatlarni hal qilishga yordam beruvchi o'ziga xos yangilovchi operatorlarning 40 ta usullarini qamrab oladi. Ulardan ayrimlari quyidagilar:

1.«Taqsim qilish»: a) obyektni mustaqil qismlarga bo'lish; b) obyektni bo'laklarga bo'lib bajarish; v) taqsimlash darajasini kengaytirish.

2.«Birlashtirish»: a) ayni yoki yondosh operatsiyalar uchun mo'ljallangan obyektlarni birlashtirish; b) ayni va yondosh operatsiyalarni birlashtirish.

3. «Onalilik»: a) bir obyektni ikkinchi obyekt ichiga va o'z navbatida uning ichiga uchinchi obyektni joylashtirish; b) bir obyektni to'g'ridan-to'g'ri ikkinchi obyekt orasidan o'tkazish.

4. «Chapqilik»: a) obyektning harakatdagi qismini yoki tashqi muhitni qo'zg'almas holatga olib kelish, aksincha, muqim holatni harakatdagi holatga keltirish; b) vazifa shartlari talab qilgan harakatlar o'ziga teskari harakatni amalga oshirish; v) obyektning «oyog'ini osmonga qilib qo'yish» va uni o'nglash.

5. «Zararni foydaga aylantirish»: a) zararli faktorlardan (masalan, muhitga zarar yetkazadigan) ijobiy samara berishda foydalanish; b) zararli faktorlarni boshqa zararli faktorlar bilan qo'shish asosida uni bartaraf etish; v) zararli faktorlarni ortiq darajada kuchaytirish asosida uni bezarar qilish

Xulosa. Xulosa qilib aytganda yuqorida keltirilgan metodlar qiyosiy pedagogik fanini o'qitishda samarali hisoblanib, fan mavzusining xususiyatidan kelib chiqqan holda foydalanish mumkin. Qiyosiy pedagogika fanini o'qitishda ta'lim metodining o'qituvchi tomonidan to'g'ri tanlanishi, dars jarayonida turli vositalar yordamida mavzuning tushuntirilishi ta'lim sifatining oshishiga yordam beradi. Yuqorida ko'p bora ta'kidlab o'tilganidek, ta'lim metodlarini malakali o'qituvchining usuli bilan birlashtirish natijasida fanning va o'rganilayotgan mavzuning mazmuni va o'ziga xosliklari to'liq ochib beriladi. Bu esa

o'quvchilarning fan yuzasidan bilim, ko'nikma, malaka kompetensiyalarining shakllanishi va rivojlanishiga asos vazifasini o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mutalipova M.J., Xodjayev B.X. Qiyosiy pedagogika. – T: 2015y.
2. Xoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.
3. Richard Arum, Melisa Velez. Improving Learning Enviroment: Schol Discipline and Comporative Perspektive. Stanford Universiy Press, USA 2012.
4. H.Fry, S. Ketteridge, S.Marshall. HandbookFor teaching and Learning in Higher Education. New York, Routledge, 2009.